

8-SINF DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI. ChSB - 1.

Sana: _____ Sinf _____ O'quvchining
F.I.SH. _____

1-yarim yillik CHSB savollari original

1. Davlat organlariga murojaat qilish yoki turli jamoat birlashmalari bilan aloqalar o'rnatish qaysi turdagi munosabatlar sirasiga kiradi? (B – 2,5 ball)

- A) Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar
- B) Ma'naviy munosabatlar
- C) Siyosiy munosabatlar
- D) Huquqiy munosabatlar

2. Respublikalar boshqaruv shakliga ko'ra nechta turga bo'linadi va ular qaysilar? (B – 2,5 ball)

- A) Ikkita turga: prezidentlik va parlamentar respublika
- B) Uch turga: prezidentlik, parlamentar va aralash respublika
- C) Uch turga: federal, unitar va konfederativ respublika
- D) Ikkita turga: monarxiya va respublika

3. Davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va uslublari tizimi qanday atama bilan ifodalanadi? (B – 2,5 ball)

- A) Demokratiya
- B) Siyosiy tartibot
- C) Siyosiy tizim
- D) Siyosiy partiya

4. Sinfdan tashqari tadbir vaqtida o'quvchilar maktab mulkiga zarar yetkazib, devorlarni bo'yashdi va stol-stullarni sindirishdi. Ushbu holatda qaysi normalar buzilgan? (Q – 4,5 ball)

- 1) Axloq normalari – mas'uliyat va intizom buzildi
- 2) Huquq normalari – mulkni asrash va maktab ichki tartib qoidalari buzildi
- 3) Estetik normalar – maktabning go'zalligi va tartibi buzildi
- 4) Diniy normalar – diniy qarashlarga hurmatsizlik qilindi

A) 1, 2 B) 1, 3 C) 2, 4 D) 1, 2, 3

5. Huquq normalarining tarkibiy elementlarini to'g'ri moslashtiring. (Q-4,5 ball)

1. Gipoteza	a) bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha jarima qo'llaniladi.
2. Dispozitsiya	b) haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash, basharti, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa;
	c) voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar;
	d) tuhmat qilish, ya'ni bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa.

A) 1-b, d; 2-a, c B) 1-c, d; 2-b, a C) 1-d; 2-b, c D) 1-c; 2-b, d

6.To'g'ri moslashtirilgan javobni toping. (Q-4,5 ball)

1)moddiy huquq tarmog'i	a) har qanday axloqiy munosabatlarni tartibga soladi;
2) protsessual huquq tarmog'i	b) xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga soladi;
3)xalqaro huquq tarmog'i	c) huquq va majburiyatlarni amalga oshirish tartibini belgilaydi;
	d) huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

A) 1-c; 2-a; 3-b B) 1-d; 2-c; 3-b C) 1-b; 2-c; 3-a D) 1-d; 2-b; 3-a

7. "Agrosanoat" MCHJ o'z faoliyatini kengaytirish maqsadida "Moliyaviy qo'llab-quvvatlash markazi" davlat tashkilotiga kredit ajratish bo'yicha ariza topshirdi. Biroq tashkilot kredit ajratish to'g'risidagi so'rovni rad etib, bu haqda rasmiy qaror chiqardi. "Agrosanoat" MCHJ mazkur qarorni asossiz deb hisoblab, o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganini ta'kidladi hamda qarorni haqiqiy emas deb topish haqida shikoyat kiritishga qaror qildi. Bu holatda qaysi sudga murojaat qilish lozim? (Q-4,5 ball)

A) Jinoyat ishlari bo'yicha sud B) Iqtisodiy sud

C) Fuqarolik ishlari bo'yicha sud D) Ma'muriy sud

8. Quyidagi fikrlardan qaysilari jinoyat huquqi va mehnat huquqi sohasining o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni to'g'ri ifodalaydi? (Q -4,5 ball)

1) Ikkala huquq sohasi ham davlat tomonidan tartibga solinadi va qonunlarga asoslanadi.

2) Jinoyat huquqi qanday xatti-harakat jinoyat ekanligini belgilaydi, ularni sodir etganlar qanday jazolanishi va bu borada yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

3) Mehnat huquqida nizolar faqat og'zaki hal etiladi, jinoyat huquqda esa davlat organlari ishtiroki orqali hal qilinadi.

4) Ikkala huquq sohasi ham fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan.

5) Mehnat huquqida faqat davlat organlarining majburlov choralari qo'llaniladi.

6) Mehnat huquqi ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

A)1, 2, 4, 5 B) 2, 3, 4, 5 C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 2, 4, 6

9. Umida va Difuza o'rtasida kitob sotib olish bo'yicha shartnoma tuzildi. Bu vaziyatda huquqiy munosabatning obyektini aniqlang. (Q -4,5 ball)

A) Faqat Umida B) Faqat Difuza C) kitob D) shartnoma

10.Quyidagi jadvalda ikki davlatning boshqaruv shakli va siyosiy tizimiga oid qisqa ma'lumot berilgan. Jadvalni o'qib chiqing va berilgan variantlardan to'g'ri xulosani tanlang.(M-5,5 ball)

Davlat	Ma'muriy-hududiy tuzilish shakli	Mahalliy hokimiyat organlari	Ularning vakolatlari
A. davlat	Unitar davlat	Viloyat, tuman, shahar hokimliklari	Markaziy hukumat qarorlarini bajaradi, mustaqil qonun chiqarish huquqiga ega emas
B. davlat	Federativ davlat	Shtat, respublika, o'lka hukumati	Mahalliy qonunlar qabul qiladi, soliq siyosatini mustaqil yuritadi

- A) Har ikkala davlatda qonunlar faqat markaz tomonidan qabul qilinadi.
 B) B. davlatida hududlarning o'z qonun chiqaruvchi organlari mavjud.
 C) A. va B. davlatlari bir xil boshqaruv tizimiga ega.
 D) A. davlatida hududlar o'z qonunlarini mustaqil qabul qiladi.

O'quvchining to'plagan bali: _____

Tekshiruvchi o'qituvchi: _____ **(imzo)**